



UDK:811.521

Salomat XUSANOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining o'qituvchisi
E-mail: salomathusanova@gmail.com

F.f.d., DSc A.O'razbayev taqrizi asosida

CAN HALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S POETRY REFLECT AN INTERACTION WITH THE WORLD OF ANNA AKHMATOVA?

Annotation

The article examines the mutual literary influence and shared themes in the works of Halima Khudoyberdiyeva and Anna Akhmatova. It provides a detailed analysis of the challenges faced by both poets, particularly personal losses, love, family struggles, creative difficulties, and the impact of social pressure on their poetry. The study also explores their portrayal of women's experiences and the fight for social justice.

Key words: Background, context, psychologism, philosophical, gender.

МОЖЕТ ЛИ ПОЭЗИЯ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ ОТРАЖАТЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С МИРОМ АННЫ АХМАТОВОЙ?

Аннотация

В статье рассматривается анализ взаимного литературного влияния и общих тем Халимы Худойбердиевой и Анны Ахматовой. Наглядно анализируются трудности в жизни обеих поэтесс, особенно личные потери, любовные, семейные, творческие трудности, то, как социальное давление повлияло на стихи, женский опыт и борьба за социальную справедливость.

Ключевые слова: Фон, контекст, психологизм, философский, гендер.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA ANNA AXMATOVA OLAMI BILAN BOG'LIQ BO'LGAN UMUMIY HOLATLARNI O'ZARO TA'SIR SIFATIDA BAHOLASH MUMKINMI?

Annotatsiya

Maqolada Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatova o'rtasidagi o'zaro adabiy ta'sir va umumiy mavzularga oid tahlil muhokama qilingan. Har ikki shoiraning hayotidagi qiyinchiliklar, ayniqsa, shaxsiy yo'qotishlar, muhabbat, oila, ijodiy sinov, ijtimoiy bosim she'rlarga qay darajada ta'sir qilganligi, ayollar tajribasi va ijtimoiy adolat uchun kurash to'g'risidagi tahlillar aniq berilgan.

Kalit so'zlar: fon, kontekst, psixologizm, falsafiy, gender.

Kirish. Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyeva – ikki buyuk shoir, ular turli adabiy ana'na va tarixiy sharoitlarda yashagan bo'lsalar ham, o'z she'riyati orqali insoniyatning eng chuqur va nozik tuyg'ularini o'rganishda umumiy ahamiyatga ega. Ularning she'rlari nafaqat milliy adabiyotlarining durdonalariga aylangan, balki xalqaro miqyosda ham tan olingan.

Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarida ko'rsatilgan kechinmalar, tasvirlangan til boyligi ikki madaniyat o'rtasidagi muhim adabiy aloqalar va o'zaro ta'sirning mavjudligini tasdiqlaydi. Ular she'riyati o'rtasidagi mushtarak jihatlar va adabiy aloqalarni o'rganish adabiyotshunoslikning yangi imkoniyatlarini ochishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus shoirasi Anna Axmatova (1889-1966) o'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyevaga (1947-2018) nisbatan og'irroq davrda yashagan. Uning hayoti mashaqqatlarga to'la.

Anna Axmatova asarlarida, avvalo, Sovet Ittifoqining siyosiy repressiyalari, shaxsiy va milliy azob-uqubatlari, ayolning ichki dunyosidagi kechinmalari aks ettirilgan. Uning she'rlarida sevgi, yo'qotish, yolg'izlik, umidsizlik va ayni paytda qarshilik kabi mavzular doimo markaziy o'rinda turadi.

Halima Xudoyberdiyeva esa o'z asarlarida asosan o'zbek ayolning ichki kechinmalarini, sevgi va qayg'u bilan bog'liq muammolari tasvirlaydi. Uning she'rlarida tug'ilishdan tortib o'limgacha bo'lgan jarayonlar, insonning qalbida iz qoldirgan azob va hayotning o'ziga xos go'zalligi yoritiladi. Halima Xudoyberdevaning asarlari, ayniqsa, milliy urf-odatlar va madaniyat bilan bog'liq an'analar orqali o'zining chuqur psixologik va falsafiy tahlilini taklif etadi. Uning she'riyati ayolning ichki dunyosini, uning ruhiy holatini va shaxsiy tajribalarini keng qamrovda aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Anna Axmatova va Halima Xudoyberdiyeva turli adabiy ana'na va sharoitlardan kelgan bo'lsalarda, ularni she'r orqali muhim mavzu va kechinmalarni

o'rganish istagi birlashtiradi. Har ikki yozuvchi ham o'z mintaqalarining adabiy kanoniga muhim hissa qo'shgan va ularning asarlari butun dunyo kitobxonlari va olimlari tomonidan o'rganilib, qadrlanib kelinmoqda. Ha, Halima Xudoyberdiyeva she'riyati bilan Anna Axmatova olami o'rtasidagi mushtarak xususiyatlarni o'zaro ta'sir deb bilishimiz mumkin. Ikkala shoir ham sevgi, yo'qotish va ayol tajribasi mavzularini o'rganib, asarlari o'rtasida adabiy dialog yaratadi.

Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatovaning tarjimai hollarida ham umumiy jihatlarini uchratish mumkin. Ikkala shoir ham o'zlarining hayotiy sinovlari, shaxsiy yo'qotishlari va hissiy kurashlarini tasvirlaydi, bu esa ularning hayotiy hikoyalari o'rtasida chuqur bog'liqlik yaratadi.

Jumladan, 1921-yilning yozida uning turmush o'rtog'i bolsheviklar tomonidan otib tashlanishi, 1935-yilning 23-oktabrida o'g'li Lev Gumilyov hibsga olinishi kabi kechinmalarini shoir quyidagicha ifodalaydi: Tixo lyetsya tixiy Don / Jeltiy mesyats vxodit v dom. / Vxodit v shapke nabekren, / Vidit jeltiy mesyats ten. / Eta jenshina bolna, / Eta jenshina odna. / Muj v mogile, sin v tyurme, / Pomolites obo mne. ("Tixo lyetsya tixiy Don") [1]. Jim oqadi sokin Don, / Uyga kirdi sariq oy. / Kirdi bosh kiyim qiya / Sariq oy ko'rdi soya. / Bu ayol bemor ayol, / Bu ayol yolg'iz ayol. / O'g'lim yotar qamoqda, yorim esa qabrda, / Men uchun bo'ling doim duoyu-ibodatda. (shaxsiy tarjima – S.X.).

She'rda ayolning qayg'usi borligi, kasalligi, uyda yolg'iz yotgani, tun qorong'usida yolg'izligi va faqat oy uning tasallisi, oy uyini yoritib, umid baxsh etishi, yoqimli xotiralar qolishi, turmush o'rtog'i qabrda, o'g'li esa qamoqda ekanligi tasvirlangan.

H. Xudoyberdiyeva ham og'ir kunlarni boshidan kechiradi. 1994-yilda shoiraning turmush o'rtog'i Mavlon Umrzoqov ishdan olinadi. Elkam yag'ir, tanbal, surlar ostida, / Esiz umr fitna, sirlar ostida. / Olloh, nechun meni olov yaratding, / Qandoq yonay kir yomg'irlar ostida [1]. Ushbu to'rtlik orqali

shoira ahvolining og'irligini, uning ichki kurashi va mashaqqatli hayotini savollar orqali yetkazib bergan.

Xuddi shuningdek, 1946-yilda Bolsheviklarning Butunittifoq Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasi tashkiliy byurosi tomonidan "Adabiy platformani ta'minlash uchun" "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Unda "prinsipialsiz, mafkuraviy zararli ishlari" uchun ikki sovet yozuvchisi - Anna Axmatova va Mixail Zoshchenkoni Yozuvchilar uyushmasidan chiqarib yuborilganligi haqida yozilgan [2].

F.G. Ranevskaya tomonidan yozib olingan: "Men "hukm"dan keyin uning oldiga qanday yugurganimni eslayman. Uy bo'sh edi. Puninning qarindoshlari qochib ketishdi. U jim qoldi, men ham unga nima deyishni bilmasdim. U ko'zlarini yumib yotardi. Dudoqlar ko'k va oq rangga aylandi. Yuzi qip-qizil qizarib, darhol oqarib ketdi. Men uni ovqatlanimoqchi edim. Uyda yeyiladigan narsa yo'q edi. Men do'konga yugurdim va nimadir sotib oldim. U ovqatlanishdan bosh tortdi. Ikkinchi ham jim qoldik. Keyin uni ko'chaga olib chiqishni boshladilar va bir necha kundan keyin u to'satdan dedi: "Ayting-chi, Gitlerna butun jihozlari bilan quvib chiqargan buyuk mamlakatim nega bitta kasal kampirning ko'krigidan barcha tanklari bilan o'tishi kerak edi" [2].

A.Axmatova quyidagi she'rida uning bosib o'tgan yo'li mashaqqatli, o'rquv, iztirobga to'la bo'lganini tasvirlaydi. Dorogoyu senoy i nejdannoy / YA uznala, chto pomnish i jdes. / A bit mojet, i mesto naydesh / Ti — mogili moyey bezimyanoy. [3]. Qimmatli va kutilmagan yo'l ila / Men bildim, sen eslaysan, kutasan. / Ehtimol, mening nomsiz go'ringa / Joy toparsan. (shaxsiy tarjima - S.X.).

She'rdagi "kutilmagan" so'zi bu anglash kutilmaganda sodir bo'lganligini anglatadi, go'yo u his-tuyg'ularini yoki xotiralarini bu tarzda boshdan kechirishini kutmagandek. Uning she'rlari chop etishdan to'xtatiladi.

"Turmush o'rtog'im qamoqqa tushgan vaqti menga ham ishdan bo'shash haqida ariza yozishni so'rashdi. Ikki yil men uyda o'tirganman. Uyda o'tirgan paytim biror joyda biror satrim ketmagan. Mana shu gap..."

Ohirgi nasriy to'plami haqida gapirar ekan, Halima Xudoyberdiyeva: "Bu—"Yuragimning og'riq nuqtalari", yani jamiyatdagi yuragimga og'riq bergan voqea-hodisalar aks etgan,"- deydi H. Xudoyberdiyeva. [4].

U "Yig'layolmadim" she'rida o'zining g'amini va yo'qotishlarini juda kuchli his-tuyg'ular bilan ifodalashga harakat qilgan, lekin ularni bildirishga qodir emasligini ko'rsatgan. Ajab, o'z yerimda yig'layolmadim, / Buyam bir sho'rimumda, yig'layolmadim. / "G'am"ni uzgarting, deb qildilar beruq. / Hattoki she'rimda yig'layolmadim. / Dardim tiqilsada bo'g'zimda tutdim, / Qushlar yig'lay oldi, yig'ladi terak. / Men umrbod yoshim ichimga yutdim, / Bir kun go'rimda qon yig'lasam kerak [5].

A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva she'rlaridagi qabr obrazi yo'qotish, unutish, dardini izhor etib bo'lmaslik va fojiali muqarrarlik mavzusi bilan bog'langan. Ularning she'rlarida qabr nafaqat jismoniy o'limni, balki hissiy yoki ruhiy tugallanishni ham anglatadi.

Ijtimoiy va siyosiy sharoitlar bilan kurash mavzulari, shuningdek, dunyoda o'z o'rnini izlash ularning tarjimai holiva o'xshashlikni beradi. Bundan tashqari, ikkalasi ham boshqalar bilan murakkab munosabatlar haqida yozgan, bu esa avtobiografik hikoyaga shaxsiy va samimiy xususiyat qo'shadi. Bu ularning tajribalarini universal va o'quvchilar hozirjavobligini oshiradi.

Bundan tashqari, hissiy chuqurlik va falsafiy aks ettirishdagi o'xshashliklar ikkala muallifga ham ta'sir qiladigan madaniy va tarixiy kontekstlarni ko'rsatishi mumkin. Shuni ham hisobga olish kerakki, H. Xudoyberdiyeva A. Axmatovadan tarjimalar yoki adabiy an'analar orqali ilhomlangan bo'lishi mumkin, bu esa turli madaniyatlar she'riyatining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.

".....Ustozlarning bir yutug'imga o'n yutuq qo'shib maqtashlari, ba'zan imtihon paytlari Rasul Hamzatov, Silva Kaputikyan yoki Eduard Mejelaytisdanmi yo Bella Axmadullinadan birorta she'r o'qitib (o'zbekcha tarjimada albatta

yod o'qirdim) imtihon daftarchamga "5" baho qo'yib berishlari meni qanotlantirib yuborardi..."[6].

Halima Xudoyberdiyeva Moskvada ikki yil-1975-1977-yillarda tahsil oladi. "U erda o'tgan ikki yilni hech qaysi yillarga almashtirib bo'lmaydi. Moskva menga ko'p narsa bergan. Men u yerda dunyo adabiyotiga kirib bordim desam bo'ladi...O'sha davrda yaratilgan she'r ham ruhi boshqacha", -deydi u [7].

Andrey Voznesenskiyni "Yo'ldadirman" she'rini tarjima qilgan. Siz kutasiz. Men ham boraman. / Uchib borodurman xuddi o'q. / Faqat ...oldin xat yuboraman, / O'sha xatni yozganimcha yo'q.

Moskvada "Faxr" va "Oq olmalar" she'riy to'plamlari rus tilida tarjima qilinadi. Keyinroq esa, "Reshimost" nomli she'riy tarjima kitobi chop etiladi.

Shoiralarning umumiy xususiyatlarini tarixiy va madaniy fon kontekstida ko'rish mumkin. Ikkala shoir ham o'z ijodida o'z aksini topgan muhim o'zgarishlar va ziddiyatli davrlarda ijod qilgan. A. Axmatova ham, H. Xudoyberdiyeva ham o'rtoqlashgan hissiy samimiylik va nozik lirik chuqur bog'lanish hosil qilib, o'quvchilarga o'z kechinmalarida o'xshashliklarni topish imkonini beradi. Uslub, mavzu va falsafaning ta'siri har ikkala adabiy an'anani boyitib, o'zaro bog'liq bo'lishi mumkin.

Masalan, turmush o'rtoqlariga bag'ishlangan she'rlarni taqqoslash haqiqatan ham A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva o'rtasidagi umumiy xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi.

A.Axmatova N.Gumilyovga bag'ishlagan she'rlarida ko'pincha muhabbat, judolik, sadoqat kabi murakkab tuyg'ularni ifodalaydi. "SHelesti o'proshlom stariy dub..." asarida u bilan bo'lgan hissiy bog'liqlik chuqurligi, yo'qotish azobi, o'tmish xotiralarini aks etgan. Bu she'r uning ehtirosli, ammo ayni paytda og'riqli kechinmalarini aks ettiruvchi tasvirlar bilan to'ldirilgan, sevgi qanday baxt va azob manbai bo'lishi mumkinligini tasvirlagan. Masalan, YA molchal tak mnogo tyakix let. / Pitka vstrech yeshe neotvratima / Kak davno ya znayu tvoy otvet: / YA lyublyu i ne bila lyubima. ("YA molchal tak mnogo tyakix let") [8]. Og'ir yillar o'tdi bir so'z demadim. / Qiynoq uchrashuvlar muqarrar hamon. / Javobing angladim anchadan buyon: / Sevimaganman-u, lek men sevardim. (shaxsiy tarjima - S.X.).

Ushbu she'r Axmatovaning yolg'izligining o'ziga xos muhitini, o'tmish, taqdir va ruh haqidagi fikrlarini aks ettiradi.

H.Xudoyberdiyeva, o'z navbatida, turmush o'rtog'i M.Umrzoqov haqidagi "Oshiqlik sizdan o'tardi...", «Derazada chiroq yoqaman» she'rlarida ham muhabbat, yo'qotish mavzulariga to'xtalib o'tadi. Oshiqlik sizdan o'tardi, ma'shuqalik bizdanam, / Bugun yiroqdasiz, dil muz, eruv bilmas muz tanam. / Bugun hijron dovullarin quchog'ida qaltirab, / Isinmoqqa o't izlayman Sizning maktub, so'zdanam.

Ularning birgalikdagi hayoti, quvonch va qiyinchiliklari, turmush o'rtog'iga bo'lgan tuyg'ulari uni shaxs va shoir sifatida shakllantirganini tasvirlaydi. Uning she'rlarida sog'inch, birgalikda kechinma va erishilgan yutuqlardan g'urur tuyg'usi ifodalangan chuqur hissiy birlik obrazini yaratadi.

Shayaxmetova V.I. asarida "A.Axmatovaning muhabbat lirikasining o'ziga xosligi" asarida Axmatovaning o'ziga xos psixologizmi haqida to'xtalib o'tadi: "...shoir she'rlarida psixologiya, tuyg'ular to'g'ridan-to'g'ri tasvirlash orqali emas, balki o'ziga xos, psixologiyalashgan detal orqali yetkaziladi. Axmatovaning she'riy dunyosida badiiy detallar, moddiy detallar va uy-ro'zg'or buyumlari juda muhimdir. Axmatova tafsilotlarni aytib berish texnikasidan foydalangan holda tushuntirish emas, balki ko'rsatish orqali tasvirning haqiqiylikligi va eng yuqori psixologik ishonitirishga erishadi. Bular kiyim qismlari (mo'yna, qo'llop, uzuk, shlyapa va boshqalar), uy-ro'zg'or buyumlari, fasllar, tabiat hodisalari, gullar va boshqalar bo'lishi mumkin" [9].

Anna Axmatovaning "Lyubov pokoryayet obmanno..." she'ri o'tmish haqida, qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar haqida, chunki biz nimanidir yo'qotganimizdagina qadrlay boshlaymiz. U bu haqda to'g'ridan-to'g'ri gapirmaydi, u ishora qiladi va shu bilan sizni diqqat bilan o'qishga va undan javob izlashga majbur qiladi.

Nikolay Gumilyov Axmatovaning ishi haqida shunday yozgan: "... Anna Axmatovada ko'pincha og'riq, sog'inch, o'lim kabi so'zlar uchraydi. Bu tabiiy va shuning uchun go'zal yoshlik noumidligi hozirgacha "qalam mulki" bo'lib kelgan va she'riyatda

birinchi bo'lib Axmatova she'rlarida o'z o'rnini topganga o'xshaydi[10].

H. Xudoyberdiyeva ham A. Axmatova kabi "Begim sizni xudoyim..." she'ridagi ushbu misralarda turmush o'trog'iga bo'lgan tuyg'ularini shaxsiy va shoir tarzda shakllantirganini tasvirlash mix, tig', yonmoq, zardobli sharob, may, qon detallaridan foydalanadi va ushbu detallar orqali jismoniy va manaviy og'riqni aks etadi. Begim, ikkilanmasdan yer yuzin tashlang mixlab. / Mixning, tig'ning zahrini sezmay yonib boraman. / Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib boraman. / Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutmay may, / O'z qonim bilan o'zim alvonlanib boraman.

Bu misralarda ishqning og'irligi, qiyinligi, uning inson hayotiga olib kelgan zaharli ta'siriga e'tibor qaratilgan. SHERda ishqni mustaqil, yolg'izlik bilan aloqador, ruhiy va jismoniy ozorni anglatadigan ramzlar orqali falsafiy, sirli va oliy ta'rif berilgan.

- Ibrohim G'ofurov "sher bu shoirning o'zi", deydi. Shoirning o'zi bo'lmasa, u yozgan she'r she'r bo'lmaydi. Chunki ifoda etilgan tuyg'ular rost chiqishi kerak-da! Agar dunyo shoirlari ijodini kuzatgan bo'lsangiz, shoirming zo'ri muhabbat lirikasida bilinadi. Binobarin, muhabbat haqida iliq-miliq she'rlar yozadigan shoirlar ijtimoiy mavzuda ham chaqnab chiqmaydi, iliq-miliq fikr aytishdan nariga o'tolmaydi – deydi H.Xudoyberdiyeva [11]

Xulosa. O'xshashlik nuqtai nazaridan Axmatova ham, Xudoyberdiyeva ham ayollarni ijtimoiy umidlar va zulmlarga 1-ilova.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida Anna Axmatova olami bilan bog'liq bo'lgan o'xshash holatlar

№	Umumiy o'xshashliklar
1.	Halima Xudoyberdiyeva va Anna Axmatovanning tarjimai hollarida ham umumiy jihatlarini uchratish mumkin. Ikkala shoir ham o'zlarining hayotiy sinovlari, shaxsiy yo'qotishlari va hissiy kurashlarini tasvirlaydi, bu esa ularning hayotiy hikoyalari o'rtasida chuqur bog'liqlik yaratadi.
2.	A. Axmatova va H. Xudoyberdiyeva she'rlaridagi qabr obrazi yo'qotish, unutish, dardini izhor etib bo'lmilik va fojiali muqarrarlik mavzusi bilan bog'langan.
3.	Ijtimoiy va siyosiy sharoitlar bilan kurash mavzulari, shuningdek, dunyoda o'z o'rnini izlash ularning tarjimai holidagi o'xshashlikni beradi.
4.	Hissiy chuqurlik va falsafiy aks ettirishdagi o'xshashliklar ikkala muallifga ham ta'sir qiladigan madaniy va tarixiy kontekstlarni ko'rsatishi mumkin.
5.	H. Xudoyberdiyeva A. Axmatovadan tarjimalar yoki adabiy an'analari orqali ilhomlangan bo'lishi mumkin, bu esa turli madaniyatlar she'riyatining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi.
6.	Shoirlarning umumiy xususiyatlarini tarixiy va madaniy fon kontekstida ko'rish mumkin. Ikkala shoir ham o'z ijodida o'z aksini topgan muhim o'zgarishlar va ziddiyatli davrlarda ijod qilgan.
7.	O'xshashlik nuqtai nazaridan Axmatova ham, Xudoyberdiyeva ham ayollarni ijtimoiy umidlar va zulmlarga qarshi kuchli va chidamli qilib ko'rsatadilar.

ADABIYOTLAR

1. Axmatova A.A. Полное собрание поэзии и прозы в одном томе.- М.: "Издательство АЛЬФА-КНИГА", 2019. – 1007 с.
2. Черных В.А.. Летопись жизни и творчества А.Ахматовой. М. Индикс 2008.
3. Ахматова А.. Сочинение в двух томах. Том первый.Москва . Издательство «Правда» 1990.
4. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/12/081201_talking_point_halima_khudoyberdieva
5. Xudoyberdiyeva, Halima . Saylanma. III jild – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2018. – 352 b.
6. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html>
7. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2008/12/081201_talking_point_halima_khudoyberdieva
8. Ахматова А.. Сочинение в двух томах. Том второй.Москва . Издательство «Правда» 1990.
9. Окишева К.А., Шахметова В.И. Своеобразие любовной лирики А.А. Ахматовой. Русская словесность и современная школа: научно-методический журнал кафедры русского языка и литературы: материалы II Всероссийских научных чтений. Нижние Челны, 2019; Выпуск 3: 71–75.
10. Ахматова А.А. Узнают голос мой...: Стихотворения. Поэмы. Проза. Образ поэта. Составители Н.Н. Глен, Л.А. Озеров. Москва: Педагогика, 1989.
11. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/halima-xudoyberdiyeva-suhbat-va-she'rlar.html> Halima Xudoyberdiyeva: "Gunohlar mingi bitta senga tegar tosh..."